



O'ZBEK TILINI O'QITISHDA KOMMUNIKATIB YONDASHUVNING SAMARADORLIGI

Mo'minova Oydin Qurbonovna,

f.f.n., dotsent

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti,

O'zbekiston

E-mail: muminovaaydin@gmail.com

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.14995200>

***Annotatsiya.** Mazkur maqolada o'zbek tilini boshqa millat vakillariga o'qitishda qo'llaniladigan kommunikativ yondashuvning muloqot orqali til o'rgatishning pozitsiyasi, funksional pozitsiya, innovatsion pozitsiya, muloqotning shaxsga munosabati pozitsiyasi, jamoaning o'zaro ta'sir pozitsiyasi, vaziyatli yoki yuqori motivatsiyali o'quv vaziyatida o'quv jarayonini rolga asoslangan holda tashkil etish kabi tamoyillari belgilab olinib, bir vaqtning o'zida eshitish, yozish, o'qish va ayniqsa gapirish ko'nikmalarini barobar shakllantirish uchun kommunikativ yondashuv asosida xorijiy tilni o'zlashtirish, an'anaviy usulga qaraganda ancha tezroq samara berishi yoritiladi.*

***Kalit so'zlar:** chet tilni o'qitish, funksional pozitsiya, innovatsion pozitsiya, muloqotning shaxsga munosabati pozitsiyasi, jamoaning o'zaro ta'sir pozitsiyasi, amaliy muloqot ko'nikmalari, o'quv vaziyati.*

O'zbek tilini ikkinchi til sifatida o'qitiladigan mutaxassisliklarda o'qitish kommunikativ kompetensiyani rivojlantirish va takomillashtirishga, xususan, talabalarda kelajakdagi kasbiy faoliyat sohasida muloqot ko'nikmalarini, mutaxassislik atamaları bilan ishlash va turli matnlarni tahlil qilish qobiliyatini shakllantirishga qaratilgan. Til o'qitishda kommunikativ yondashuvga amal qilgan E. I. Passov, A. A. Leontyev, V. G. Kostomarov, A. N. Shchukin, G. A. Kitaygorodskaya, I. Zimnyaya, V. A. Skalkin, E.P. Shubin, I. L. Bim va boshqa olimlar bu metod ilmiy-nazariy va metodik jihatdan samaraliroq ekanligini isbotlaydi. Ushbu masalaning dolzarbligini E.I. Passov quyidagicha ta'kidlab o'tgan: «O'quv materialini kommunikativ yo'nalishda tashkil etish muammosi nazariy jihatdan hamda faqat uning talaffuzni o'rgatish bilan bog'liq muammolari ko'rib chiqilgan. Nutq faoliyatining barcha turlari bo'yicha kommunikativ metodni barcha darajalarda tatbiq etish esa haligacha hal etilmagan». [Passov, 1]. Kommunikativ yondashuv - bu til o'rganuvchining og'zaki va yozma muloqot qila olishi uchun zarur bo'lgan kommunikativ qobiliyatlarni rivojlantirishga qaratilgan o'qitish. Kommunikativ yondashuv o'qitishning maqsadlarini aniqlashda katta ahamiyat kasb etadi. I. L. Binning fikriga ko'ra: "Chet tillarini o'qitishning kommunikativ usuli aslida til o'qitishning umumiy kommunikativ yo'nalishi yakuniy natijaga qaratilgan, ya'ni chet tilidan aloqa vositasi, xalqlar o'rtasida o'zaro muloqot qila olish vositasi sifatida



foydalana olishga tayyor, har tomonlama rivojlangan, bilimli shaxsni shakllantirishga yo'naltirilgan bo'lishi kerak"[2]. Kommunikativ yondashuv chet tili o'qitish metodikasida tilni faol va amaliy ishlatishga asoslangan yondashuvdir. U an'anaviy grammatik yondashuvlardan farq qiladi, chunki unda asosiy e'tibor til o'rganuvchining nutq faoliyatiga, ya'ni uni real hayotdagi kommunikativ vaziyatlarda ishlatishga qaratiladi. Bu yondashuvda til o'rganuvchilar faqat tilning grammatik qoidalari va lug'at boyligini o'rganish bilan cheklanib qolmaydi, balki kommunikativ vaziyatlarga moslashish va samarali muloqot qilishni ham o'rganadilar. Shuning uchun ham kommunikativ o'qitish til o'rganuvchining turli nutqiy vaziyatlarda muloqot qilishiga, ya'ni kommunikativ kompetensiyani egallashiga xizmat qiladi. Bu maqsadga muvofiq nutqiy faoliyatning barcha turlari bir-biri bilan bog'liq holda ko'rib chiqilib, o'quvchining tilni sifatli o'zlashtirishiga qaratiladi.

Kommunikativ yondashuv dastlab tillarni tezlashtirilgan o'rganishning asosiy usuli sifatida shakllangan. U tayyor gaplarni yod olishga, til materialini ongli ravishda o'rganmasdan, ko'pincha o'ylamasdan takrorlashga asoslangan bo'lsa-da, asta-sekin o'qitishning mazmuni va usullari o'zgarib, kengayib bordi.

Kommunikativ yondashuvning tabiati:

1. Til o'rganuvchi mijoz sifatida, o'qituvchi esa maslahatchi sifatida ishtirok etadi;
2. Ona tili umuman ishlatilmaydi;
3. Grammatik va leksik minimum induktiv tarzda beriladi;
4. Til o'rganuvchilar matnni lentaga yozib olish, qayta tinglash va asosiy lenta bilan solishtirish orqali talaffuz ko'nikmalarini shakllantiradilar.
5. Faol o'zaro ta'sir mashqlari qo'llaniladi.

O'tkazish usullari:

1. Lentaga yozilgan matn bilan muloqotga kirishish;
2. Tajribani qayta tiklash;
3. Til o'rganuvchining talaffuzini lentaga yozib olish va qayta tinglash;
4. O'qituvchi - kompyuter o'zaro aloqasi;
5. Guruh, juftlik, vaziyatli topshiriqlar.

Hamkorlik asosidagi ta'lim jarayonining asosiy ishtirokchilari o'qituvchi va til o'rganuvchidir. O'qituvchi kuzatuvchi, tushuntiruvchi, maslahatchi, til o'rganuvchining harakatlarini tartibga soluvchi, til o'rganuvchi esa faol intiluvchi izlanuvchi va faol harakatlanuvchidir.

Ular o'rtasidagi subyekt-subyekt munosabatlari hamkorlik va teng nutqiy sheriklikka asoslanadi.



Til o'rganuvchining tadbirkorligi, faolligi, o'ziga xos ijodkorligining asosiy omili uning kuchli o'rganish motivatsiyasi va mulohazasidir. O'qituvchi tomonidan tashkil etilgan nutqiy faoliyat turlari til o'rganuvchining ishtirok etish ehtiyojlariga ko'ra motivatsiya yaratishga qaratilgan bo'lishi kerak. Ishtirok etish motivatsiyasini shakllantirish usullari:

1. Televizion dasturlarni tomosha qilish, radiodasturlarni tinglash, ularni o'rganiladigan tilda tahlil qilish;
2. Badiiy adabiyot o'qish, o'qigani haqida gapirish;
3. O'sha tilning mashhur kishilari bilan uchrashish, suhbatlashish;
4. Faqat shu tilda gaplashish uchun yozgi oromgohlar tashkil etish;
5. Ta'lim jarayonini tezlashtirish;
6. Tizimli nazorat va muammolar bilan ishlash;
7. O'qitishning interfaol usullaridan foydalanish;
8. Ta'lim jarayoniga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish.

E. I. Passov kommunikativ yondashuvda o'qitishning beshta pozitsiyasini taklif qiladi: «1) nutq-tafakkur faoliyati pozitsiyasi; 2) xususiylashtirish pozitsiyasi; 3) funksional pozitsiya; 4) vaziyat pozitsiyasi; 5) innovatsion pozitsiya» [4].

Olimlarning tadqiqotlari asosida o'zbek tilini boshqa millat vakillariga o'qitishda qo'llaniladigan kommunikativ yondashuvning quyidagi tamoyillarini belgilaymiz:

1. Muloqot orqali til o'rgatishning pozitsiyasi. Bu nutqqa yo'naltirilgan o'qitishning amaliy yo'nalishini belgilaydi. Darsda til haqida gapirish shart emas, tilning o'zini qo'llash kerak, ya'ni avval grammatikani o'rgatib, so'ng gapirishga o'tish eng katta adashish belgisidir. Chet tilida muloqotni faqat gapirish, tinglash va o'qish orqali o'rganishimiz mumkin.

Eng muhimi, mashqlar haqiqiy muloqotni yaratishga qaratilgan bo'lishi kerak. Haqiqiy muloqot tavsiflash, mazmunini aytib berish kabi bir tomonlama monologda emas, balki guruhning barcha a'zolari ishtirok etadigan interfaol polilog asosida yuzaga oshiriladi.

2. Funksional (qo'llash imkoniyati) pozitsiyasi. Nutq faoliyati leksik, grammatik, fonetik jihatga ega. Bu uchtasi nutq jarayonida chambarchas bog'liqdir. Shundan xulosa qilish mumkinki, so'zni qo'llanilish shaklidan alohida o'rganib bo'lmaydi.

Funksional pozitsiyasiga ko'ra, so'zlar ham, o'xshash grammatik shakllar ham nutq harakati davomida o'rganiladi. An'anaviy tarjima - grammatik usulda lingvistik asos birinchi o'rinda turadi va til o'rgatish tilni tizimli va strukturaviy asosiga



tayangan holda o'rgatish yo'li bilan amalga oshiriladi, kommunikativ yondashuvda esa til birliklari aniq nutq tuzish maqsadi uchun funksional qo'llanilishiga qarab tanlanadi. Chet tili leksikasini o'rgatish masalasini funksional nuqtayi nazardan maxsus o'rgangan V.S.Korostelev: "Funksionallik og'zaki va yozma muloqot jarayonida nima va qanday xizmat qilsa, shunday o'zlashtirish demakdir", "chet tilda o'qitishning kommunikativ usulida funksional prinsip yetakchi rol o'ynaydi" deb ta'kidlaydi. [5].

3. Vaziyatli yoki yuqori motivatsiyali o'quv vaziyatida o'quv jarayonini rolg'a asoslangan holda tashkil etish.

Har qanday yoshdagi til o'rganuvchini qiziqtiradigan vaziyatlar va muloqot muammolari asosida materialni saralash va tartibga solish juda muhimdir. Vaziyatli o'rganish zarurati ko'plab metodistlar tomonidan e'tirof etilgan, ammo har bir kishi buni har xil tushunadi.

Tilni o'zlashtirish uchun tilni o'rganish emas, balki uning yordamida atrof-muhitni o'rganish, undan foydalana bilish kerak. Til o'rganuvchilarning gapirishga bo'lgan motivatsiyasi barcha aloqadagi real yoki sun'iy vaziyatlarda namoyon bo'ladi. .

Shuning uchun dars jarayonida til o'rganuvchiga tegishli bo'lmagan, o'z hayotida foydalanmayotgan ma'lumotlardan ko'ra, ularning har birining shaxsiy hayoti va faoliyati bilan chambarchas bog'liq bo'lgan masalalarni muhokama qilish zarur.

4. Innovatsion pozitsiya. Avvalo, bu nutq vaziyatining yangiligi bo'lib, u darsning turli tuzilishida (muloqot mavzusining almashinishi, muhokama qilinadigan muammo, suhbatdosh, muloqot shartlari va boshqalar) aks etadi.

Bu foydalanilayotgan materialning yangiligi (taklif qilinayotgan ma'lumotlarning hajmi va mazmuni), darsni tashkil etishning yangiligi (interfaol o'qitish usullari) va axborot-kommunikatsiya vositalari orqali taqdim etilayotgan ko'rgazmali tasvirlarning xilma-xilligidir.

Kommunikativ yondashuvda o'qitishning innovatsion pozitsiyasi lingvistik, didaktik, ilmiy-metodik, amaliy yangiliklarni har doim o'qitishning butun mazmuni va tuzilishiga o'z vaqtida samarali kiritishni o'z ichiga oladi.

Grammatika va leksikaning amaliy qo'llanishi: Grammatika va leksika o'quvchilarga faqat nazariy ko'rsatmalar asosida emas, balki turli vaziyatlarda qo'llaniladigan amaliy vazifalar orqali o'rgatiladi. [6].

5. Muloqotning shaxsga munosabati pozitsiyasi. Shaxssiz nutq mavjud emas, nutq har doim shaxs orqali amalga oshadi. Har qanday shaxs boshqa odamlardan



o'zining tabiiy fazilatlarini (hayot tajribasi, qadriyatlarini, his-tuyg'ulari, qiziqishlari va boshqalar) bilan ajralib turadi.

Kommunikativ ta'lim til o'rganuvchining ana shunday shaxsiy xususiyatlarini hisobga olishni e'tiborga oladi, chunki faqat shu tarzda kommunikativ vaziyatni yaratish mumkin. Har bir shaxsning o'ziga xos xususiyatlarini inobatga olgan holda, kommunikativ yondashuv asosida o'qitish samarali bo'ladi.

Chet elliklarga rus tilini jadal o'rgatish asoschilaridan biri G.A.Kitaygorodskaya, til o'rganuvchilarning barcha imkoniyatlaridan foydalanishlari uchun sharoit yaratish, shaxs va jamoaning imkoniyatlarini faollashtirish orqali ularni iloji boricha tezroq til muloqotiga olib kirish mumkin, deb hisoblaydi. Olimning fikricha: "Shaxsiy muloqotdan o'quv muloqotining asosiy farqi shundaki, o'rganishdan tashqari, til o'rganuvchining hayoti va faoliyati bilan bog'liq shaxsiy muhim ma'lumotlar almashinuvi mavjud" [7] bo'ladi.

6. Jamoaviy o'zaro ta'sir pozitsiyasi - o'quv jarayonini shu tarzda yaratishda til o'rganuvchilar bir-biri bilan faol muloqot qiladilar, guruhdagi har bir kishi o'zini ifoda etishga harakat qiladi va har bir kishining shaxsiy yutuqlariga boshqalarning yutuqlari bevosita ta'sir qiladi.

Jadallashtirilgan ta'limda kommunikativ yondashuvning barcha turlari (o'qish, yozish, tinglash, gapirish, muloqot qilish) parallel ravishda navbatma-navbat amalga oshiriladi. Muloqot – ishtirok etishning eng yuqori cho'qqisi. "Muloqot – odamlarning ijtimoiy hayotda til orqali bir-birlari bilan muloqot qilishlari, o'zaro muhokama qilishlari va unga munosabat bildirishlari natijasida bir-birining fikrini og'zaki va yozma ravishda tushunishdir" [7].

Til o'rganuvchi ishtirok etishning tinglash, yozish, o'qish va talaffuz turlarini to'liq o'zlashtirgandagina o'z darajasida til bilish darajasiga erisha oladi, o'quv faoliyatining muhim tarkibiy elementlaridan biri – kommunikativ vazifalari til o'rganuvchilar tomonidan bajariladigan an'anaviy til va grammatik topshiriqlarga o'xshamaydi, balki kommunikativ ko'nikmalarini shakllantirishga qaratilgan bo'lib, nutq faoliyatining barcha turlarini rivojlantirishga asoslanadi. Hodisa yoki obyekt haqidagi ma'lumotlarning bir qismini to'liq, ikkinchi qismini esa noma'lum qilib berish orqali yaratilgan kommunikativ topshiriqlar til o'rganuvchining mustaqil izlanishi va ishtiroki natijasida o'qitishning shaxslararo faolligini ta'minlaydi.

O'qitishdagi faollik til o'rganuvchining nafaqat xulq-atvori, balki shaxsning kommunikativ sifati hamdir. Kommunikativ vazifalari tezlashtirilgan ta'lim faoliyatining muhim tarkibiy elementlaridan biri – bu nafaqat til o'rganuvchilar tomonidan bajariladigan odatiy vazifalar, balki ularni amalga oshirishning umumiy



usullari va amallarini o'zlashtirish ko'nikmalaridir. O'zbek tilini jadal o'qitish til o'rganuvchining ishtirok etish malakasini rivojlantirish, o'zbek tilining davlat tili maqomini oshirish, qo'llanish doirasini kengaytirish, muloqot darajasini oshirishga qaratilgan. Bugungi kunda jadallashtirilgan til o'qitishning eng samarali usuli – kommunikativ yondashuvga yo'naltirilgan holda o'qitish ekanligi isbotlangan bo'lib, endilikda o'qituvchilar oldiga ushbu yo'nalishda metodik mahoratini oshirish va aniq natijalarga erishish vazifasi qo'yilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Пассов Е.И. Коммуникативный метод обучения иноязычному говорению. – М., 1985.
2. Бим И.Л. Теория и практика обучения немецкому языку в средней школе. – М., 1988.
3. Harmer, J. (2007). The Practice of English Language Teaching. London.; Richards, J.C., Rodgers, T.S. (2014). Approaches and Methods in Language Teaching. Cambridge University Press.
4. Пассов Е.И. Основы коммуникативной методики обучения иноязычному общению. – М., 1989.
5. Коростелев В.С. Основы функционального обучения иноязычной лексике. – Воронеж, 1990.
6. Nunan D. (2020). "Kommunikativ yondashuv asoslari." (O'zbek tiliga tarjima qilgan M. Karimov). Toshkent: Innovatsion til markazi 46-48 betlar.
7. Китайгородская Г.А. Мосты доверия. Интенсивный курс русского языка. - Книга для преподавателя. - Москва, 1993.
8. Ismailovna S. Z. Linguistic-psychological factors of teaching Russian-speaking students to Uzbek monologue speech //Multidisciplinary Journal of Science and Technology. – 2023. – Т. 3. – №. 5. – С. 134-137.
9. Юлдашева, Ш. Ш. Цифровая трансформация и перспективы обучения узбекскому языку. // IX Международный форум по педагогическому образованию IFTE 2023. Kazan: 2023. С. 537–547.